

336.2: (575.1)(043.3)  
0-86

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH

---

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**OTAMURADOV NURIDDIN NAJMIDDINOVICH**

**KICHIK VA O'RTA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA  
TORTISHNI SODDALASHTIRISH MASALALARI**

**08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TDIU  
, kutubxonasi**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Economical sciences**

<b>Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich</b> Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishni soddalashtirish masalalari.....	3
<b>Отамурадов Нуриддин Нажмиддинович</b> Вопросы упрощения налогообложения субъектов малого и среднего бизнеса.....	25
<b>Otamurodov Nuriddin Najmiddinovich</b> Issues of optimization of taxation of small and medium-sized businesses....	49
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**OTAMURADOV NURIDDIN NAJMIDDINOVICH**

**KICHIK VA O'RTA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA  
TORTISHNI SODDALASHTIRISH MASALALARI**

**08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.4.PhD/Iqt3515-raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNeb» axborot-ta'lim portaliga (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Tuxliev Bozor Karimovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Xudoyqulov Xurshid Xurramovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ergashev Jamshid Ashurovich  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Etakchi tashkilot:** O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «23» 01 soat 12 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (D.raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «6» 01 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «6» 01 dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
a'zosi, i.f.d., professor

S.K. Xudoykulov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida global raqobatning keskinlashuvi sharoitida kichik va o'rta biznesning iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va innovatsiyalarni rag'batlantirishdagi ahamiyatining oshib borishi bilan soha subyektlarini soliqqa tortishni soddalashtirishga e'tibor kuchaymoqda. Soliq tizimini soddalashtirish orqali kichik va o'rta biznes uchun huquqiy va moliyaviy yukni kamaytirish mumkin. Bu biznes subyektlari soliq qonunlarini tushunish va unga rioya qilishda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ularning katta moliyaviy va yuridik resurslari mavjud emas. Shu sababli, soddalashtirilgan soliq tizimi kichik va o'rta biznes uchun ma'muriy xarajatlarni kamaytirib, ularni o'z faoliyatlariga ko'proq e'tibor qaratish imkoniyati bilan ta'minlaydi. "Yevropa ittifoqi mamlakatlari va AQShda ham kichik tadbirkorlikda bir necha soliqqa tortish tizimlaridan foydalaniladi. Bu maxsus soliq rejimlari (milliy iqtisodiy siyosatning ustuvorliklari bilan bog'liq), umumiy rejim (korporatsiya daromad solig'i) va xususiy tadbirkorlar uchun daromad solig'idir"<sup>1</sup>. Jahon iqtisodiyotida turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlarini soliqqa tortishni soddalashtirish bo'yicha turli dastur va islohotlar amalga oshirilib, tadbirkorlik muhitini yaxshilashga intilinmoqda. Masalan, past foizli soliq stavkalari, yagona soliq deklaratsiyalari va soliqlarni onlayn to'lash imkoniyatlari kichik biznes uchun qulay muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Jahonda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishni soddalashtirish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliq siyosatining soddalashtirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, soddalashtirilgan soliq tizimi orqali ko'plab norasmiy sektordagi kichik biznes rasmiylashtirish, innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, soliqlarni hisob-kitob qilish va biznesga ta'sir etuvchi soliq mexanizmining elementlarini aniqlash, uni soddalashtirishni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarni yoritib berish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan budget-soliq siyosati, birinchidan, iqtisodiyotning istiqbolli soha va tarmoqlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida muhim fiskal omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Qolaversa, amaldagi faol ijtimoiy siyosat va kuchli ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirishda davlat budgetiga alohida vazifalar yuklatilgan bo'lib, bu vazifalarning samarali ijrosi ta'minlanmoqda. Keyingi yillarda soliq siyosatini takomillashtirish, soliqlarning iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish maqsadida soliq tizimining ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslari, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sirini oshirishga qaratilgan islohotlar ustuvor ahamiyatga ega. Korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq stavkalarini

<sup>1</sup> Иманшапиева М.М., Мусаева Х.М. Системы налогообложения субъектов малого бизнеса: опыт индустриальных стран и возможности его использования в условиях РФ. DOI: 10.7256/1812-8688.2013.12.4059. — *Налоги и налогообложение* – №12(114), 2013. – С.908.